



## INTEGRATIV KIMYO DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH

Sodiqov Behzod Baxriddin o‘g‘li

Buxoro davlat pedagogika instituti (BuxDPI)

“Kimyo” kafedrasini o‘qituvchisi

Babajanova Nilufar Pirnafas qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti (BuxDPI)

Kimyo ta’lim yo‘nalishi, 4-bosqich talabasi

Integratsiya (lot. *integratio* — tiklash, to‘ldirish, *integer* — butun so‘zidan olingan) fanlarning yaqinlashishi va o‘zaro aloqa jarayoni, differensiatsiya bilan birga kechadi; Ta‘limda integratsiyalash o‘quvchi dunyoni bilishi va tasavvur qilishda bir tomonlama emas, balki har tomonlama rivojlanishga erishiladi.

### Kimyo darslarda integratsiya

Integratsiyalashgan dars natijalari o‘qituvchilarning ijodiy fanlari rivojida namoyon bo‘ladi. Fanlararo integratsiya - bir necha o‘quv predmetning birbiriga taalluqli sohalarini ko‘rsatish emas, balki integratsiyalab o‘qitish orqali o‘quvchilarga atrofimizdagi dunyoning yaxlitligi haqida tasavvur berishdir. Olimlarning ta’kidlashicha, integratsiya o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi. Integratsiyaning quyidagi darajalarini belgilash mumkin.


1. Tematik (mavzuiy) integratsiya
2. Muammoli integratsiya
3. Konseptual integratsiya
4. Nazariy intergratsiya[1].

### Kimyo va adabiyot:


1. M.Lomonosov qasida yozgan tabiiy silikat mahsuloti nomi nima? (shisha)
2. Antuan Sent-Ekzyuperi “Sen-hayotsan!” deb yozgan modda nomi nima? (Suv)
3. Fantast-yozuvchi Belyayev fikricha, savdogar shu modda bilan savdo qilgan.U nima? (havo)

### Kimyo va biologiya:

1.  $6\text{CO}_2 + 6\text{H}_2\text{O} = \text{C}_6\text{H}_{12}\text{O}_6 + 6\text{O}_2$  reaksiyada o‘z aksini topgan o‘simliklardagi hayotiy jarayon qanday nomlanadi?



2. Oqsillar chirishi natijasida atmosferaga ajralib chiqadigan zaharli gaz nima?



### KIMYO VA GEOGRAFIYA

1. Dunyoda eng katta tabiiy quyma sof oltin 1872-yilda Xill-End konidan topilgan.U plita shaklida bo'lib, uzunligi 144 sm, eni 66 sm, qalinligi 10 sm va og'irlligi 90 kg dan ortiqroq edi.Unga "Xilterman plitasi" deb nom qo'yilgan.Bu oltin qaysi mamlaktdan topilgan? (Avstraliya)
2. Qadimda odamlar ma'lumotlarni yozish va kelgusi avlodlar uchun qoldirishda har xil vositalardan foydalanganlar. Jumladan, yozuv qog'ozi sifatida papirus o'simligining tanasini ham ishlatganlar.Papirus o'simligi qayerda va qaysi mamlakatda o'sadi? (Misr; Nil daryosi deltasida)[2].

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. B.B.Sodiqov, D.M.Murodov. "Kimyo fanini o'qitishda integrativ va kreativ yondashuv" //monografiya// Buxoro: "Sharq" nashriyoti,.2024.ll2 bet.
2. Меретукова В.Р. Инновационные идеи в дидактических трудах И.Я.Лернера. Дисс. ... канд.пед.наук (13.00.01). – Москва, 2003. 10. Сайидахмедов Н.С. Система методов обучения учащихся механизированному труду в хлопководстве. Автореф. дисс. канд.пед.наук. – Москва, 1983, - с. 18bet.